

**TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA TOVAR MODDIY ZAXIRALARI HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Masharipov Odilbek Muzaffar o'g'li
Toshkent Moliya instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada respublikamizdagi tibbiyot tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralari hisobini aks ettirish jarayonining ahamiyatini o'rganish hamda tovar moddiy zaxiralar hisobining nazoratini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar to'g'risida to'xtalib o'tildi. Tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi jarayonini tashkil etishning ilmiy va uslubiy jihatlari yoritildi.*

Kalit so'zlar: *budjet tashkiloti buxgalteriya hisobi tovar-moddiy zaxiralar materiallar daromadlar va xarajatlar joriy qiymat.*

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar miqyosida davlat budjetining islohotlari muhim o'rinni egallagan. Shular qatorida budjet tizimi budjetlarining yangi, xorij tajribalariga asoslangan standartlarini amalda qo'llashni joriy etish, uning tashkiliy va me'yoriy huquqiy tizimini takomillashtirish, uning tarrafiy etishining yo'nalishlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning misolida tovar-moddiy zaxiralari, shu jumladan, yo'ldagi va qayta ishlashga berilgan, qayta ishlanadigan, ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik maqsadlari uchun ishlatiladigan mehnat buyumlari, xomashyo va materiallar, mehnat buyumlarining tarkibi, miqdori va harakati, ularni tayyorlash, sotib olish, qayta baholash jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishning tartib va qoidalari o'rganildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek, - "Iqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasibarqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir.¹

Tovar-moddiy zaxiralar -keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivdir.²

Tovar-moddiy zaxiralarga xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo'lmagan yoki bir operatsion tsikl mobaynida foydalaniladigan mol-mulklar, jumladan, qurilish-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojatnomasi . 2020-yil 25-yanvar.

² A.S.Ramazonov, Sh.V.G'aniyev, I.N.Qo'ziyev "Budjet hisobi va nazorati". Darslik. T.: "Nihol print". 2022 yil. 632 b

ta'mirlash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg'i va yonilg'ilar, ozuqa va yem-hashak, tara (idish)lar, qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish buyumlari, o'stiruvdagi va boquvdagi chorva mollari, o'quv, ilmiy va boshqa maqsadlar uchun materiallar hamda laboratoriya sinovida bo'lgan, uzoq vaqt foydalaniladigan materiallar, shartnoma asosida bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlari uchun maxsus asbob-uskunalar va boshqalar kiradi.

Iqtisodchi Stoyanova E.S. fikricha zaxiralarning mavjudligi belgilangan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish dasturini uzluksiz bajarishga imkon beradi. Korxonada zaxiralarning kamayishi sababli materiallarning yetishmasligi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonining ritmini buzadi, uskunalarining ishlamay qolishiga yoki xatto texnologik jarayonni qayta tiklash zarurligiga olib keladi. Zaxiralarni yaratish sabablaridan biri ham talabning o'zgarishi ehtimoli mavjudligida bo'ldi. Har qanday tovar guruhiga bo'lgan talabni yuqori ehtimollik bilan taxmin qilish mumkin. Biroq, ma'lum bir mahsulotga bo'lgan talabni bashorat qilish ancha qiyin. Shuning uchun, agar ushbu mahsulotning yetarli miqdordagi zaxirasi yoki korxonada "buyurtma berish" berish bilan ish olib boradigan bo'lsa, uni ishlab chiqarish uchun xom-ashyo bo'lmasa, ehtimolli samarali talab qondirilmasligi mumkin, ya'ni mijoz puli mavjud bo'lsa ham uni sotib olish imkoniyati bo'lmasligi mumkin.³

Tibbiyot muassasalarida tovar-moddiy zaxiralar:

-Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan xomashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, tara va tarabop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik jihozlari, boshqa materiallar zaxiralari;

-Mexanizm qismlari, qurilmalar, buyumlarga tugallanmagan ishlov berilishi va ularning yig'ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish. Xizmatlar ko'rsatuvchi va ishlar bajaruvchi tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymati sifatida qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad sifatida tan olinmagan tugallanmagan xizmatlar (ishlar) bo'yicha xarajatlardan tashkilot topadi;

-Tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan va shartnomada yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

-Boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatiy faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar obyektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar) ham keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

ЗСтоянова Е.С. и др. Управление оборотным капиталом. – М.: Изд-во «Перспектива», 2012. – 428 с.

Tovar-moddiy zaxiralar aktiv sifatida tan olinadi, agar:

-tashkilotga aktiv bilan bog'liq kelgusidagi iqtisodiy naf kelishiga ishonch mavjud bo'lsa;

-aktiv qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lsa;

-ularga bo'lgan mulk huquqi o'tsa.

Tovar-moddiy zaxiralar tashkilotning buxgalteriya balansiga quyidagilar natijasida kiritilishi lozim:

-mahsulot yetkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi bo'yicha xarid qilish;

-bepul kelib tushish (hadya shartnomasi bo'yicha);

-ayirboshlash;

-uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o'tkazish;

-ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarni aniqlash;

-ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish;

-tashkilotning o'zida tayyorlanishi;

-hisobot davri oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobga olinadigan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish;

-tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan mulk huquqi olinishiga olib keladigan boshqa operatsiyalar va hodisalar.

1-jadval

Tovar-moddiy zaxiralarning o'rnatilgan me'yorini aniqlash uchun belgilangan ko'rsatkichlar⁴

Tovar-moddiy zaxiralar nomi	Belgilangan kun me'yori
Oziq-ovqat mahsulotlari (mavsumiydan tashqari)	15 kun
Mavsumiy oziq-ovqat mahsulotlari	150 kun
Dori-darmonlar, reaktivlar, bog'lash materiallariva dorixona anjomlari	60 kun
Barcha byudjet tashkilotlari uchun yoqilg'i (bolalar va davolash tashkilotlaridan tashqari)	75 kun
Bolalar va davolash tashkilotlari uchun yoqilg'i	90 kun
Xo'jalik va konselyariya materiallari	45 kun
Ozuqa va yem-xashak	120 kun
Qurilish-ta'mirlash materiallari	45 kun

Tibbiyot tashkilotlarida materiallar bo'yicha moliya yili oxiriga bo'lgan qoldiqlar aniqlangan me'yorlar asosida tahlil qilinadi. Agar tibbiyot tashkilotini moliya yili oxirida bo'lgan materiallar bo'yicha qoldiq qiymati belgilangan me'yor(limit)dan ortiqcha bo'lsa keyingi moliya yilida byudjet mablag'lari bo'yicha xarajat smetasida materiallar sotib olish uchun kiritilgan summa me'yordan ortiq summaga kamaytiriladi.

Tibbiyot muassasalarida tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining "O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalari" to'g'risidagi 1111-son buyrug'i.14.03.2002 yilda ro'yxatdan o'tgan.

-bojxona bojlari va yig'implari;

-tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan soliq va yig'implar summalari (agar ular qoplanmasa (hisobga olishga qabul qilinmasa));

-tovar-moddiy zaxiralar ta'minotchi va vositachi tashkilotlar orqali xarid qilinganda ularga to'lanadigan to'lovlar (vositachilik haqi);

-tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatlash va ularni texnik shartlarga muvofiq sinash bo'yicha xarajatlar;

-tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ularni ayni paytdagi joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari va tovar-moddiy zaxiralarni barcha turdagi transport bilan ularni ayni paytdagi joylashish yoki foydalanish joyiga transportda tashish uchun (fraxt) to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha xarajatlar, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralarni transportda tashishda xatarlarni sug'urtalash bo'yicha xarajatlardan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining "O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalari" to'g'risidagi 1111-son buyrug'i.14.03.2002 yilda ro'yxatdan o'tgan.

2. A.S.Ramazonov,Sh.V.G'aniyev,I.N.Qo'ziyev."Budjet hisobi va nazorati".Darslik.T.: "Nihol print".2022 yil.632 b.

3. Стоянова Е.С. и др. Управление оборотным капиталом.

– М.: Изд-во «Перспектива», 2012. – 428 с.

4. www.lex.uz - (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).